



**ESHITISHDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNING
PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TAVSIFI**

K.G‘.Sadirova

Nizomiy nomidagi O‘zMPU

Surdopedagogika va MPKA

kafedrası PhD., dotsenti

Eshitish analizatorining buzilishi bolaning umumiy rivojlanishiga, ayniqsa uning kognitiv, hissiy va ijtimoiy sohalariga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Maxsus pedagogika fanida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar ikki asosiy toifaga ajratiladi: kar bolalar (tug‘ma yoki erta yoshda eshitish qobiliyatidan to‘liq mahrum bo‘lganlar) va zaif eshituvchi bolalar (eshitish qobiliyati qisman saqlanib qolgan, mustaqil ravishda nutqni egallash imkoniyati cheklanganlar). Bu ikki toifadagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari, ta’lim olish imkoniyatlari va kompensator mexanizmlari bir-biridan farq qiladi.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar rivojlanishining umumiy qonuniyatlari. L.S.Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan nuqsonning murakkab tuzilishi konsepsiyasiga ko‘ra, eshitish analizatorining buzilishi birlamchi nuqson (eshitishning pasayishi yoki yo‘qolishi) va ikkilamchi nuqsonlar (nutq rivojlanishining orqada qolishi, mavhum tafakkurning yetarli shakllanmaganligi) majmuasini keltirib chiqaradi . Birlamchi nuqson biologik omillar bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkilamchi nuqsonlar ijtimoiy muhit va pedagogik ta'sir natijasida shakllanadi hamda maxsus korreksion ishlar orqali bartaraf etilishi yoki sezilarli darajada kamaytirilishi mumkin¹.

R.M.Boskis va J.I.Shif kabi olimlarning tadqiqotlarida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning bilish jarayonlari rivojlanishidagi bir qator umumiy

¹ Выготский, Л. С. Основы дефектологии : учебное пособие для вузов / Л. С. Выготский. – Москва : Издательство Юрайт, 2024. – 238 с. – (Высшее образование).



xususiyatlar ajratib ko'rsatilgan. Eshitish analizatorining buzilishi sensor axborotni qabul qilish tizimining qayta tuzilishiga olib keladi. Bunda ko'rish, taktil-vibratsion va kinestetik sezgilar kompensator rol o'ynaydi. Shu sababli, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'rish idroki batafsil tahlil qilishga moyil bo'lib, ular mayda detallarni ajrata olish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutqni maxsus ta'limsiz mustaqil egallay olmaydilar. Bu holat so'z-mantiqiy tafakkurning kechikib rivojlanishiga, mavhum tushunchalarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarga olib keladi².

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ixtiyoriy diqqatni jamlash va taqsimlash, ayniqsa, og'zaki material bilan ishlashda qiyinchiliklar kuzatiladi. Ko'rgazmali-obrazli xotira nisbatan yaxshi rivojlangan bo'lib, bu ularning kuchli tomoni hisoblanadi. Nutqiy rivojlanishdagi nuqsonlar tufayli tafakkurning aniq-obrazli shakllari ustunlik qiladi, mavhumlashtirish va umumlashtirish jarayonlari sekin shakllanadi.

Kar o'quvchilar nutqni maxsus o'qitishsiz to'liq egallay olmaydilar. Ular uchun asosiy muloqot vositasi sifatida imo-ishora nutqi va daktilologiya xizmat qiladi. Zaif eshituvchi o'quvchilar esa eshitish qobiliyatining qisman saqlanib qolganligi tufayli cheklangan hajmda bo'lsa-da, og'zaki nutqni egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar .

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanishidagi eng muhim kompensator omillardan biri – bu ularning ko'rish analizatoriga tayangan holda atrof-muhitni idrok etishi va tasviriy faoliyat orqali o'z tasavvurlarini ifodalash imkoniyatidir. Aynan shu xususiyat ularning badiiy-ijodiy rivojlanishi uchun qulay zamin yaratadi va pedagogik ta'sirning samarali yo'nalishlaridan birini belgilab beradi.

Eshitish analizatorining buzilishi bolaning umumiy rivojlanishiga, ayniqsa uning kognitiv, hissiy va ijtimoiy sohalariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

² Шиф, Ж. И. Психология глухих детей / Ж. И. Шиф, Т. В. Розанова, Н. В. Яшкова ; под ред. Ж. И. Шиф. – 3-е изд., стер. – Москва : Академия, 2022. – 448 с.

Maxsus pedagogika fanida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ikki asosiy toifaga ajratiladi: kar bolalar (tug'ma yoki erta yoshda eshitish qobiliyatidan to'liq mahrum bo'lganlar) va zaif eshituvchi bolalar (eshitish qobiliyati qisman saqlanib qolgan, mustaqil ravishda nutqni egallash imkoniyati cheklanganlar). Bu ikki toifadagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari, ta'lim olish imkoniyatlari va kompensator mexanizmlari bir-biridan farq qiladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishining umumiy qonuniyatlari. L.S.Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan nuqsonning murakkab tuzilishi konsepsiyasiga ko'ra, eshitish analizatorining buzilishi birlamchi nuqson (eshitishning pasayishi yoki yo'qolishi) va ikkilamchi nuqsonlar (nutq rivojlanishining orqada qolishi, mavhum tafakkurning yetarli shakllanmaganligi) majmuasini keltirib chiqaradi. Birlamchi nuqson biologik omillar bilan bog'liq bo'lsa, ikkilamchi nuqsonlar ijtimoiy muhit va pedagogik ta'sir natijasida shakllanadi hamda maxsus korreksion ishlar orqali bartaraf etilishi yoki sezilarli darajada kamaytirilishi mumkin³.

Birlamchi va ikkilamchi nuqsonlar dialektikasi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda birlamchi nuqson – bu eshitish analizatorining buzilishi bo'lib, u bevosita biologik omillar (irsiyat, tug'ruq travmalari, yuqumli kasalliklar va boshqalar) ta'sirida yuzaga keladi. Ikkilamchi nuqsonlar esa birlamchi nuqsonning oqibati sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, eshitishning yo'qolishi nutqiy muloqotning cheklanishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida so'z-mantiqiy tafakkurning rivojlanishini sekinlashtiradi va shaxs rivojlanishidagi o'ziga xosliklarni keltirib chiqaradi.

R.M.Boskis tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik klassifikatsiyaga ko'ra, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar quyidagi asosiy guruhlariga ajratiladi: kar bolalar (eshitish qobiliyati to'liq yo'qolgan yoki nutqni mustaqil egallash imkonini bermaydigan darajada past), zaif eshituvchi bolalar (eshitish

³ Выготский, Л. С. Основы дефектологии : учебное пособие для вузов / Л. С. Выготский. – Москва : Издательство Юрайт, 2024. – 238 с. – (Высшее образование).

qobiliyati qisman saqlangan va maxsus yordam bilan nutqni egallash imkoniyati mavjud) hamda kechki yoshda eshitishni yo'qotgan bolalar (nutq shakllanganidan keyin eshitish qobiliyatini yo'qotganlar). Bu klassifikatsiya nafaqat eshitish nuqsonining tibbiy jihatlarini, balki bolaning nutqiy rivojlanish darajasi va ta'limiy ehtiyojlarini ham hisobga oladi⁴.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik-pedagogik tavsifi shuni ko'rsatadiki, ularning rivojlanishida birlamchi nuqson (eshitish analizatorining buzilishi) bilan bir qatorda, ikkilamchi va uchlamchi nuqsonlar ham mavjud bo'lib, ular asosan nutqiy rivojlanish, kognitiv jarayonlar va shaxs shakllanishidagi o'ziga xosliklarda namoyon bo'ladi. Ayni paytda, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda kompensator imkoniyatlar, xususan, vizual idrok va obrazli xotiraning yuqori darajada rivojlanishi ularning tasviriy faoliyatini rivojlantirish uchun qulay zamin yaratadi. Bu xususiyatlarni chuqur bilish va hisobga olish maxsus ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashning muhim shartidir.

ADABIYOTLAR:

1. Sadirova K. IMPROVING THE METHODS OF TEACHING VISUAL ACTIVITY TO STUDENTS WITH HEARING IMPAIRMENTS BASED ON AN INNOVATIVE APPROACH //A peer reviewed journal.

2. Sadirova, Kamola. "IMPROVING THE METHODS OF TEACHING VISUAL ACTIVITY TO STUDENTS WITH HEARING IMPAIRMENTS BASED ON AN INNOVATIVE APPROACH." A peer reviewed journal.

3. Sadirova, K. IMPROVING THE METHODS OF TEACHING VISUAL ACTIVITY TO STUDENTS WITH HEARING IMPAIRMENTS BASED ON AN INNOVATIVE APPROACH. A peer reviewed journal. 4. D.Nazarova, Z.Mamarajabova. Surdopedagogika – T.: Innovatsiya-ziyo. 2019.

⁴ Боскис, Р. М. Избранные психологические труды : в 2 т. / Р. М. Боскис ; под ред. Е. Л. Гончаровой. – Москва : Канон+, 2022. – (Библиотека психологии и педагогики).